

HUDUD IQTISODIYOTIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirqulov Xumoyun Mirzo Voxid o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada mintaqaviy xususiyatlar asosida hudud iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsion jozibadorlikni belgilovchi mintaqaviy omillar tizimlashtirilib, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati islohotlari va mavjud muammolar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: investitsion mexanizmlar, mintaqaviy xususiyatlar, hudud iqtisodiyoti, investitsion jozibadorlik, institutsional sifat, erkin iqtisodiy zonalar, xorijiy investitsiyalar.

Globalashuv va raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat keskin kuchaymoqda. Yangi jahon iqtisodiyoti investitsiya faolligini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilash muammosini birinchi o‘ringa olib chiqmoqda¹. Bu esa zamonaviy sharoitlarga mos keladigan, mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi investitsiyalarni faollashtirish va samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish va

¹GulyamovaNigoraXabibullaevna. O‘zbekistonning investitsion siyosati: ustuvor yo‘nalishlar va rivojlanish strategiyasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. Impact Factor: 8.2 | 2181-3035 | No 4(62).

ilmiy –amaliy anjuman

investorlarning davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.² Biroq, mintaqalar o'rtasidagi rivojlanish darajasi, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik, infratuzilma va institutsional muhitdagi tafovutlar investitsiyalarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishiga olib kelmoqda.

Mintaqaviy investitsion jozibadorlik muammosi iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishi va mintaqaviy rivojlanish nazariyalari doirasida keng tadqiq qilinmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, turli mintaqalarda investitsion faollik darajasiga iqtisodiy, institutsional, infratuzilma va ijtimoiy-demografik sharoitlarning kompleks ta'siri mavjud.

OECDning "Boosting Business in Regions" hisobotida ta'kidlanishicha, mintaqaviy biznes muhitining ikki jihati mahsuldorlik o'sishidagi farqlarni tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega: mintaqaviy institutsional sifat va qarz moliyasiga kirish imkoniyati. Institutsional sifat samarali qoidalar va tartib-qoidalarni, ularga rioya qilish jarayonlarining xarajatlarini hamda qoidalarni amalga oshiruvchi institutlarning salohiyati va halolligini o'z ichiga oladi.

Indoneziyada o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, kuchsiz boshqaruv tizimiga ega provinsiyalarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'sishi nazorat guruhiga nisbatan taxminan 26-30 foizga pasaygan. Bu esa institutsional omillarning investitsion jarayonlarga ta'sirining muhimligini ko'rsatadi.

Yevropa mintaqalarida o'tkazilgan tadqiqotlar institutsional sifat fizik kapital va innovatsiyalarga investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligiga yuqori darajada o'zgaruvchan ta'sir ko'rsatishini namoyish etgan. Shimoliy va Markaziy Yevropa mintaqalari fizik kapital va ilmiy-tadqiqot ishlariga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 01.08.2018 yildagi PF-5495-son Farmoni.

investitsiyalardan eng yuqori daromadni ko'rsatgan bo'lsa, kam rivojlangan mintaqalar ta'lim xarajatlaridan ko'proq foyda ko'radi.

Zamonaviy investitsiya siyosatida passiv yondashuvdan kapital jalb etishning faol va strategik modeliga o'tish kuzatilmoqda. Xalqaro tajribada raqamli texnologiyalar, ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar va investor real ehtiyojlariga moslashtirilgan strategiyalar orqali yuqori sifatli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ilg'or tajribalar shakllangan.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda investitsion muhitni yaxshilash, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, investitsiyalarni rag'batlantirish va hududiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada maxsus iqtisodiy zonalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va hududiy investitsiya fondlari samarali vositalar sifatida qaralmoqda.

2015–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining dinamik o'sishi kuzatiladi (1-rasm). Tahlil natijalari investitsion faollikning izchil va barqaror oshib borayotganligini ko'rsatadi. 2015-yilda investitsiyalar hajmi 44 810,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilgacha nisbatan sekin o'sish sur'ati kuzatilib, 72 155,2 mlrd so'mga yetgan. Ushbu davr investitsion muhitning bosqichma-bosqich shakllanishi bilan izohlanadi.

2018-yildan boshlab keskin o'sish tendensiyasi yuzaga kelib, investitsiyalar hajmi 124 231,3 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu davrda iqtisodiy islohotlar faollashuvi, investitsiya siyosatining liberallasuvi va tashqi investitsiyalar oqimining oshishi muhim omil bo'lgan.

2019-yilda investitsiyalar hajmi 195 927,3 mlrd so'mga yetib, deyarli 1,5 barobar o'sish kuzatilgan. Bu esa iqtisodiyotda kapital qo'yilmalarining sezilarli darajada kengayganligini ko'rsatadi.

ilmiy –amaliy anjuman


2020-yilda o‘shish sur‘ati biroz sekinlashgan (210 195,1 mlrd so‘m), bu global iqtisodiy beqarorlik va pandemiya omillari bilan izohlanadi. Shunga qaramay, investitsion faollik pasaymagan, balki barqaror saqlangan.

2021–2022-yillarda yana o‘shish qayta tiklanib, mos ravishda 239 552,6 mlrd so‘m va 266 240 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu davrda iqtisodiyotning tiklanish bosqichi va ichki investitsiyalar ulushining ortishi muhim rol o‘ynagan.

2023-yilda esa investitsiyalar hajmi 356 071,4 mlrd so‘mga yetib, butun davr ichida eng yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan. Bu esa investitsion muhitning sezilarli darajada yaxshilanganini va kapital qo‘yilmalar hajmi keskin kengayganini anglatadi.

1-rasm.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik), mlrd. so‘m³



Tahlil qilinayotgan davrda, investitsiyalar hajmi qariyb 8 barobarga oshgan. O‘shish dinamikasi uzluksiz va ijobiy trendga ega. 2018-yildan boshlab tezlashgan o‘shish bosqichi kuzatilgan. 2020-yilda qisqa muddatli sekinlashuv bo‘lsa-da, umumiy trend buzilmagan. Mazkur holat iqtisodiyotda:

- investitsion jozibadorlikning oshgani

³ <https://siat.stat.uz/reports-filed/1326/line-data>

ilmiy –amaliy anjuman

- davlatning faol investitsiya siyosati
- hamda kapital qo'yilmalar orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlarining samarali ishlayotganligini ko'rsatadi.

Ushbu raqamlar investitsiyalarning hududlar bo'yicha juda notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi. Poytaxt va atrof hududlarda yirik infratuzilma va sanoat loyihalari hisobiga yuqori ulush saqlanmoqda.

O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynamoqda. Hozirgi kunda mamlakatda bir qator strategik ahamiyatga ega bo'lgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritib, ular orqali xorijiy kapitalni jalb qilish, investitsiya muhiti va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratish imkoniyatlari kengaymoqda.

2025-yil 4-martdagi PF-41-son Prezident farmoni bilan maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan. Farmonga ko'ra, 2025-yilda maxsus iqtisodiy zonalarda 2,3 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish, eksport hajmini 1 milliard AQSh dollariga yetkazish, ishlab chiqarish hajmini 4,3 milliard AQSh dollariga teng miqdorda ta'minlash va 12 mingta yangi doimiy ish o'rinlarini yaratish rejalashtirilgan. Sanoat zonalarida esa 800 million AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan.

Muhim yangilik sifatida, maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyat ko'rsatish muddatiga qo'yilgan cheklovlar olib tashlandi va yangi barpo etiladigan ixtisoslashtirilgan zonalar faqat maxsus iqtisodiy zona yoki sanoat zonasi shaklida tashkil etiladigan bo'ldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining geografik joylashuvi, tabiiy-iqlim sharoiti va resurs salohiyati bilan ajralib turadigan hudud sifatida investitsiyalarni jalb qilishda alohida yondashuvni talab qiladi.

Qoraqalpog‘istonda so‘nggi yillarda keng ko‘lamli investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Qoraqalpog‘istonda yaqin yillarda qiymati 2 milliard dollarga yaqin 27 ta loyiha yo‘lga qo‘yiladi. Yangi loyihalar sanoat, logistika, qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlash tizimini qamrab oladi va natijada salkam 10 ming kishi ish bilan ta‘minlanadi. Ikki yilda 64 ta investitsiya loyihasi ishga tushgani natijasida 5 mingdan ziyod aholi ishli bo‘lgan.

Xususan, Qo‘ng‘irot tumanidagi Borsakelmas tuz koni hududida “Kungrad salt free zone” sanoat zonasi tashkil etilmoqda. 2025–2026-yillarda 50 gektar yer maydonida investitsiya loyihalari amalga oshiriladi, 2026-yilda kamida 50 million dollar, 2026–2030-yillarda esa jami 200 million dollar miqdoridagi investitsiyalar jalb qilinishi rejalashtirilgan.

Qoraqalpog‘istonda sun‘iy intellekt va data-markazlar qurilishiga 100 million dollardan ortiq investitsiya kiritgan kompaniyalar 2040 yilgacha soliqlardan ozod etiladi va elektr energiyasi narxi 5 sent etib belgilangan. Shuningdek, “Yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy markazi” qurilishi doirasida investor tomonidan 400 million dollar investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekistonda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi reytingini baholashning yangi tizimi joriy etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-sentabrdagi qarori bilan hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi reytingini baholash reglamenti tasdiqlandi.

Reyting baholash quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: investitsiya salohiyati (hududning mehnat, tabiiy, yer, moliyaviy, texnologik va innovatsion resurslar, shuningdek infratuzilma va raqobatbardoshlik bo‘yicha rivojlanish darajasi), investitsiya faolligi va boshqaruv samaradorligi. Ushbu tizim 2025 yil yakunlari bo‘yicha tajriba sifatida va 2026 yildan boshlab reglamentga muvofiq belgilangan muddatlarda o‘tkaziladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududlarida investitsiyalarning notekis taqsimlanishi bir qator omillarga bog‘liq. Birinchidan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yirik sanoat korxonalari, rivojlangan infratuzilma va malakali kadrlar resursining to‘planishi ushbu hududlarning yuqori investitsion jozibadorligini ta‘minlaydi. Ikkinchidan, Navoiy, Buxoro kabi hududlarda tabiiy resurslarning mavjudligi (gaz, neft, metall rudalari) xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha jozibadorlik yaratadi. Uchinchidan, ayrim hududlarda (Surxondaryo, Sirdaryo, Qoraqalpog‘iston) infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, transport-logistika qulayliklarining cheklanganligi va iqlim sharoitining murakkabligi investitsion faollikni pasaytirmoqda.

Mintaqaviy xususiyatlar asosida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiq:

Birinchi yo‘nalish – mintaqaviy institutsional sifatni oshirish. OECD tavsiyalariga asosan, milliy va submilliy hukumatlar institutsional sifatni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Submilliy hukumatlar yer maydonlaridan foydalanish, biznes litsenziyalash va biznesni ro‘yxatga olish bilan bog‘liq tartibga solishda muhim yoki yetakchi rollarga ega. Litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va boshqaruvdagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish mintaqaviy investitsion muhitni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Ikkinchi yo‘nalish – differensial soliq va bojxona imtiyozlari tizimini joriy etish. Har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, investitsiyalarni rag‘batlantirishning differensial mexanizmlarini qo‘llash lozim. Qoraqalpog‘iston misolida bo‘lgani kabi, alohida hududlar uchun uzoq muddatli soliq imtiyozlari va subsidiyalangan elektr energiyasi tariflari belgilanishi mumkin.

ilmiy –amaliy anjuman

Uchinchi yo‘nalish – maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish va ixtisoslashtirish. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatish muddatiga qo‘yilgan cheklovlarning bekor qilinishi ularning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari mustahkamlaydi. Biroq, zonalarini faqat eksportga yo‘naltirilgan loyihalarga ixtisoslashtirish va hududning raqobatdosh ustunliklaridan kelib chiqib, ularning ixtisoslashuvini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchi yo‘nalish – “yagona darcha” tamoyili asosida investorlarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish. Submilliy yoki milliy darajada bir martalik axborot taqdim etish yondashuvini joriy etish, biznes va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni soddalashtirishi va ma‘muriy yukni kamaytirishi mumkin.

Beshinchi yo‘nalish – hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini baholash tizimini raqamlashtirish va ochiq qilish. 2025-yildan boshlab joriy etilayotgan elektron platforma orqali hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi reytingini baholash tizimi investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tizimning ochiqligi va shaffofligi investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot mintaqaviy xususiyatlar asosida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy muammo ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston hududlarida investitsiyalar taqsimotidagi nomutanosiblik, institutsional to‘siqlarning mavjudligi va ba‘zi hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi mavjud mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini tug‘diradi.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Mintaqaviy investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillar tizimli ravishda iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy va ijtimoiy-demografik

ilmiy –amaliy anjuman

guruhlarga ajraladi. Ushbu omillarning kompleks ta'sirini hisobga olish samarali investitsion siyosatni shakllantirishning asosiy shartidir.

2. O'zbekiston hududlarida investitsiyalarning yuqori darajada markazlashganligi (top-3 hududda 42,1 foiz) mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni kuchaytirmoqda va "markaz-qoloq hududlar" tafovutini yanada chuqurlashtirmoqda.

3. Maxsus iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita bo'lib, ularning faoliyat ko'rsatish muddatiga qo'yilgan cheklovlarning bekor qilinishi va ixtisoslashtirilgan zonalarni tashkil etish imkoniyatlarining kengayishi muhim ijobiy o'zgarishdir.

4. Qoraqalpog'iston misolida amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari (2 mlrd dollarlik 27 ta loyiha) alohida hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial mexanizmlarning samaradorligini namoyish etadi.

5. Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini baholashning yangi raqamli tizimi (reyting, elektron platforma) investitsion qarorlar shaffofligini oshirish va mintaqalararo raqobatni kuchaytirish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston hududlarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni kamaytirish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. LexUz. <https://lex.uz/uz/acts/-3845273>
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-598-son, 25.12.2019. LexUz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-41-son, 04.03.2025. LexUz.
4. OECD (2025). Boosting Business in Regions: Easing Administrative Burdens and Financing Constraints. OECD Publishing, Paris.
5. Qobilov A.E. (2026). Mintaqada investitsion salohiyatni oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi. Marketing Journal of Uzbekistan.
6. Abdushaxidova N.O. (2025). Globallashuv sharoitida hududlarning investitsiya muhitini yaxshilash chora-tadbirlari. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 46(3), 196-199.
7. Inamov F.I. (2025). Mintaqada investitsiya faoliyatini faollashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida). Avtoreferat. Ziyonet kutubxonasi.
8. Soliyev A.A.O.G.L. (2025). Xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy zonalarning roli. CyberLeninka.
9. Zakirova S.A., Tojiboyev M.A. (2024). O‘zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar va ularning mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishdagi roli. Yangi O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali, 1(15).
10. Milliy statistika qo‘mitasi (2025). 2025-yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar to‘g‘risida hisobot.
11. Vazirlar Mahkamasining “Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi reytingini joriy etish to‘g‘risida”gi 580-son qarori, 15.09.2025.
12. Gulomova N.H. (2025). O‘zbekistonning investitsion siyosati: ustuvor yo‘nalishlar va rivojlanish strategiyasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 4(62).
13. Ganiyev A. va boshq. (2025). Mintaqalarda xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyalarini takomillashtirishning ilmiy asoslari. Innovative Academy.
14. OECD (2024). The geography of acquisitions and greenfield investments: firm heterogeneity and regional institutional conditions. LSE.

15. *Frontiers in Political Science* (2025). The effect of regulatory governance system on investment growth in decentralized Indonesia, 7, 1630368.